

Davlat zaxiralari
komissiyasining 2022-yil
26 sentyabrdagi 1185-sonli
bayonnomasiga 5-ilova

OLTIN MA'DANLI KONLARGA NISBATAN ZAXIRALAR TASNIFINI QO'LLASHGA OID YO'RIQNOMA

I. Umumiy ma'lumotlar

II. Konlarni geologik tuzilishini murakkabligi bo'yicha guruhlariga ajratish

III. Konlarni o'rganilganlik darajasiga bo'lgan talablar

IV. Zaxiralarni hisoblashga qo'yiladigan talablar

V. Konlarni o'rganilganlik darajasini baholash

VI. Zaxiralarni qayta hisoblash va qayta tasdiqlash

VII. Xulosa

Ilova. Qattiq foydali qazilmalar konlari geologik tuzilishi murakkabligining xarakterlik ko'rsatkichlari.

Mazkur «Oltin ma'danli konlarga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma» (keyingi o'rinlarda Yo'riqnoma) oltin konlari zaxiralarini o'rganish va hisoblashga qo'yiladigan asosiy talablarni, ularning sanoatda o'zlashtirishga tayyorlik darajasini belgilaydi.

Yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi tomonidan 2000 yil 30 iyulda tasdiqlangan «Oltin ma'danli konlarga nisbatan zaxiralar tasnifini qo'llashga oid yo'riqnoma» o'rniga ishlab chiqilgan. Yangi qattiq foydali qazilmalarning zaxiralari va bashorat resurslari tasnifiga (DZK) muvofiq, shuningdek, mahalliy va xorijiy oltin ma'danli konlarini baholash va qidirish uchun geologik qidiruv ishlari, ularning zaxiralarini hisoblash bo'yicha amaliyotni hisobga olgan holda, yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan.

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Oltin - asl metallar guruhiga oid metall, uning zichligi $19,32 \text{ g/sm}^3$, qattiqligi Brinnel bo'yicha $18,9 \times 10 \text{ MPa}$, erish harorati $1046,50\text{C}$. Oltin hatto yuqori haroratda ham kislorod, vodorod, azot, uglerod bilan birikmaydi, ishqorlarda va kislotalarda erimaydi (zar suvi, selen kislotasi va ishqorli sianidlar bundan mustasno); ba'zi organik moddalar oltinni eritishi mumkin.

Oltin yuqori darajada issiqlik o'tkazish va elektr o'tkazish, yumshoqlik, egiluvchan, noyob bolg'alanuvchanlik, cho'ziluvchanlik qobiliyatiga ega. U ko'pgina metallar - platina, palladiy, kumush, mis, vismut, xrom, kobalt, indiy, qalayi, alyuminiy, rux, kadmiy, sirkoniy va b. bilan qotishma hosil qiladi; oltin simob bilan amalgama hosil qiladi.

Oltin asosan valyuta metali hisoblanadi; uning katta qismi xalqaro hisob-kitoblarda foydalaniladigan, oltin zaxirasi deb ataladigan ko'rinishda saqlanadi.

Oltinning sanoatda qo'llanishini tobora ortib borayotgani uning noyob fizik-kimyoviy xossalari asoslangan. Oltin va uning qotishmalari reaktiv dvigatellar, raketalar, yadro reaktorlari, tovushdan tez uchadigan samolyotlar, xilma-xil sanoat asbob-uskunalarining detallarini tayyorlashda payvandlash materiali sifatida, shuningdek termoparalar, elektr uzatishda eruvchan va elektr kontaktlari hamda har xil asbob uskunalar, xronometrlar va galvanometrlar tolalarini, potensimetrlardagi qarshiliklarni tayyorlash uchun ishlatiladi. Oltin issiqlikni va nurni juda samarali qaytara oladi va kosmik fazoga uchirish uchun mo'ljallangan raketalar xamda boshqa apparatlarning ustki qismini qoplovchi material sifatida ishlatiladi. Elektron texnikasida yuqori darajali sof oltindan yarim o'tkazgichlar uchun elektrodlar tayyorlanadi. Germaniy, indiy, galliy, kremniy, qalayi va selen bilan legirlangan oltin kontaktlar, diodlar, tranzistorlar, to'g'rilagichlar tayyorlashda ishlatiladi. Zargarlik sanoatida va tibbiyotda oltin keng miqyosda qo'llaniladi.

2. Oltin yer qobig'idagi eng nodir elementlar qatoriga kiradi, uning klark miqdori $4,3 \times 10^7$ tashkil qiladi (A.P. Vinogradov bo'yicha).

Oltinning tabiatda uchrash shakllari xilma-xil: sof-tug'ma, telluridlar, sulfidlar, metalloorganik, sorbsiyalangan, suvda eriydigan.

Oltin ma'danlarda asosan sof tug'ma ko'rinishida ishtirok etadi. U odatda kvars va sulfidlar (arsenopirit, pirit, xalkopirit, xira ma'danlar, galenit va boshqa minerallar) tarkibida, aksariyat tarqoq yupqa dispers muhitda bo'ladi. Sof tug'ma oltin kimyoviy jihatdan toza bo'lmaydi va asosan kumush, kam hollarda mis, palladiy, vismut va boshqalar bilan birikkan qattiq aralashmalardan iboratdir, shu sababli «oltin sofli» tushunchasi qo'llaniladi va u sof tug'ma oltin yoki uni qotishmasining 1000 lik qismlarida kimyoviy toza oltinning massasini belgilovchi qismlar sonini bildiradi.

Sof tug'ma oltinning quyidagi turlari ajratiladi: misli oltin (kuproaurit), undagi mis miqdori 20% gacha bo'ladi; palladiyli oltin (porpetsit), uni tarkibida 5 dan 11% gacha palladiy va 4% gacha kumush bo'ladi; roditli oltin (rodit), uni tarkibida 34-43% rodiy bo'ladi; vismutli oltin (vismutoaurit), uni tarkibida 4% vismut bo'ladi; tarkibida 25% dan ortiq elektrum bo'lgan oltin; shuningdek tarkibida 10 dan 25% gacha oltin 75-90% kumush bo'lgan kyustelit ham uchrab turadi. Shakl ajralishining xilma-xilligi- donacha; bargchalar, dendritlar, shoxsimon, gubkasimon, insimon, tomirsimon shakllar ma'danlar tarkibidagi sof tug'ma oltin uchun xosdir. Kub, oktaedr yoki rombli dodekaedr shakliga ega bo'lgan oltin kristallari nodir topilmalar qatoriga kiradi. Ayrim oltin zarralarining kattaligi changsimon zarradan to yirik sof tug'ma bo'laklargacha bo'ladi. Odatda ularning o'lchamlari mikrondan bir necha millimetrgachadir.

3. Oltin ma'danli konlar hosil bo'lish sharoitlariga ko'ra endogen, ekzogen va metamorflashgan konlarga bo'linadi.

Endogen konlari keng tarqalgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasida oltin qazib chiqarishning asosiy manbai hisoblanadi.

Metamorflashgan konlarga JARdagi Vitvatersrand konining oltinli konglomeratlari va qumtoshlari kiradi, ular dunyodagi oltin konlarining eng yirigi hisoblanadi.

O'zbekistonda ushbu turdagi konlar hozircha aniqlangan emas.

Ekzogen konlariga sochma konlar mansub bo'lib, ular mazkur Yo'riqnomada ko'rilmaydi.

Endogen oltin konlari ma'dandagi mineral tarkib bo'yicha quyidagi asosiy formatsiyalarga birlashtiriladi.

Oltin-kvarsli formatsiya. Ma'danlardagi oltin asosan ozod holatda - kvarsda va qisman sulfidlarda bo'ladi va notekis taqsimlanishi bilan tavsiflanadi.

Ma'danlarning mineral tarkibi, sulfidlar miqdori va oltinni sofliğiga qarab har xil mineral turlari ajratiladi: oltin- (kumush)- karbonat-adulyar-kvarsli, ozod oltinining soflik miqdori past bo'lgan oltin-ko'p sulfidli (Chodoq; ma'danli maydoni); oltinining soflik miqdori yuqori va o'rtacha bo'lgan oltin - sheyelit - kvarsli, oltin - ko'p sulfidli (Zarmitan); ozod oltinining soflik kvarsli (Muruntov). Uglерodli terrigen jinslar (Muruntov), magmatik, kamroq hollarda vulqon jinslari (Chodoq, Zarmiton), terrigen (Qoraquduq) va karbonatli (Sentob) jinslar ma'danlarni qamrovchi jinslar hisoblanadi.

Oltin-sulfid-kvarsli formatsiya. Ma'danlar tarkibida pirit, antimonit, xalkopirit, oltin telluridlari, qo'rg'oshin, mis, kumush sulfotuzlari va o'zgaruvchan miqdorlardagi sfalerit va galenit muhim ahamiyat kasb etadi. Bu formatsiya konlari tik oddiy va murakkab kvars tomirlari (formatsiya oralig'dagi qiya va formatsiya ichi uyumlari, ma'dan ustunlari (Kauldi), qiya va tik tomirlar, quvursimon jismlar (Ko'chbuloq), subparallel va shoxsimon kichik tomirlar tizimi, chiziq bo'ylab cho'zilgan kvarslangan zonalar (Qizilolma), terrigen jinslardagi minerallashgan zonalar va tomirlar (Omontoytov, Sormich, Biran) dan tashkil topgan. Oltin ozod va qisman sulfidlar bilan birikkan sofliğ yuqori, o'rtacha va past.

Ushbu turga Bulutkon quyi turiga mansub skarnlardagi oltin- sulfid-kvars formatsiyasini kiritish mumkin.

Ushbu formatsiyadagi konlari skarn uyumlaridan tashkil topgan bo'lib granitoidlar bilan karbonat jinslarning kontaktida sulfidli va oltin mineralizatsiyasi qo'shilgan holda bo'ladi (Robinjon koni).

Oltin sulfidli formatsiya. Ma'dan tarkibidagi asosiy rolni o'zgaruvchan miqdorlarda pirit, xalkopirit, arsenopirit, pirrotin, sfalerit va galenit o'ynaydi. Birlamchi oltin sulfidlar bilan chambarchas bog'liq. Bu formatsiyaga tegishli konlar, asosan uglерodli vulqon-terrigen va terrigen jinslaridagi purkalagan oltinli sulfidlarning minerallashgan zonalaridan iboratdir. Ikkita asosiy mineral turi ajratiladi: oltinni ajratib olish qiyin bo'lgan oltin-pirit-arsenopiritli va oltin-piritli (Kokpatas, Daugiztau) va ozod holdagi hamda sofliğ yuqori bo'lgan gidrooksidli oltin (o'sha obyektning o'zidagi oksidlanish zonasi).

Ma'dan qamrovchi jinslarga uglерodli-terrigen jinslar (Daugiztau, Amantaytau konlari), vulkanogen-terrigen jinslar (Ko'kpatas konlari) kiradi.

Ma'danlarda mavjud bo'lgan sulfidlar miqdoriga ko'ra, endogen konlar zaif sulfidli (2% gacha), kam sulfidli (5% gacha), o'rtacha sulfidli (5-20%) va sezilarli sulfidli (20% dan ko'proq) ga bo'linadi.

Oltin konlari namoyondasi hisoblangan, sanab o'tilgan ma'dan formatsiyalaridan tashqari, oltin ko'plab endogen kompleks konlarning asosan

misporfirli (Kalmakir, Yoshlik-1 konlari) miskolchedan, kolchedan-polimetall va b. muhim foydali tarkibiy qismidir.

4. Morfologik belgilari, paydo bo'lish sharoiti, ma'dan tanalarining ichki tuzilishi, shuningdek, oltinning endogen oltin konlari o'rtasida taqsimlanish xarakteriga ko'ra quyidagi asosiy sanoat turlari ajratiladi: shtokverklar, shtokverksimon zonalar, minerallashgan va tomirli zonalar, tomirlar, qatlamlar, trubasimon tanalar.

Xar xil oriyentirlangan ko'p sonli, o'zgaruvchan shaklli va notekis taqsimlangan qalinligi kichik tomir va yupqa tomirchalar, shuningdek purkalgan ma'dan zarrachali sulfidli mineralizatsiyalardan tashkil topgan shtokverklar, odatda maydoni va chuqurligi bo'yicha yirik o'lchamlarga ega bo'ladi.

Shtokverklardagi sanoat ahamiyatiga molik ma'danlar linzasimon, qatlamsimon, egarsimon uyumlar, gohida ustunsimon shaklga ega. Shtokverkli konlardagi sanoat ahamiyatiga molik ma'danlar bo'lgan uchastkalar o'zining aniq geologik chegaralariga ega emas va ular namunalash ma'lumotlari bo'yicha aniqlanadi.

Shtokverk turiga dunyodagi eng yirik oltin konlaridan biri bo'lgan uglerodli-terrigen jinslardagi Muruntov koni kiradi.

Shtokverksimon zonalar bu - chiziqli cho'zilgan tik va qiyalama tomirsimon va shtokverk kvarslashuv zonalarini. Ma'dan tanalari qatlamsimon, muldosimon, egarsimon, tik qiyaliklarda – ustunsimon. Shtokverksimon zonalar odatda shtokverklarga tutashgan (uglerodli terrigen jinslardagi Myutenbay, Chuqurquduq konlari).

Minerallashgan va tomirli zonalar - bu tektonik jihatdan buzilgan gidrotermik o'zgarishlarga uchragan jinslar yoki bir-biriga yaqin joylashgan subparallel kvars tomirlari va tomirlar to'plami. Ularga chiziqli cho'zilgan shakllar va sezilarli qalinlik 5-10 dan 50 m gacha yoki undan ko'p xosdir.

Alohida konlarning ma'danlashgan va tomir zonalarini yotish sharoiti, morfologiyasi, ichki tuzilishi, ma'dan tanalarining mineral tarkibi va qamrov jinslarning tarkibi jihatidan farqlanadi.

Oltin-sulfid ma'danlashuvi, shuningdek, uglerodli terrigen jinslardagi oltin-kolchedan tomir tanalari bo'lgan tik qiya ma'dan zonalarini (Amantaytau koni). Rudalar asosan sulfidli bo'lib, yuqori oltin tarkibiga ega.

Terrigen jinslarda kvars tomirli, taram-taram tomirli kvarslashuvli tik minerallashuv zonalarini (Sarmich, Biran konlari). Ma'dan tanalarining o'q qismi oltinli linzalashgan tayoq kvars tomirlari, tashqisi – tomir-ora-sira joylashgan ma'danlashuvli gidrotermal o'zgargan zonalaridan tashkil topgan. Alohida joylashgan katta va kichik ma'dan tanalari va yoriq zonalarini bilan bog'liq bir-biriga yaqin joylashgan subparallel ma'dan tanalari tizimlari qayd etilgan.

Uglerodli terrigen jinslarda tik oltin-sulfidli minerallashgan zonalar (Daugiztau koni). Rudalar o'rtacha sulfidli, ma'dan tanalari tasmasimon va linzasimon shaklda bo'lib, ko'pincha yo'nalish va yotish bo'yilab shoxlangan. Sanoat ma'dan tanalari kesuvchi yoriqlarida cheklangan.

Vulkanogen-terrigen jinslardagi qiya yotgan oltin-sulfidli ma'danlashuv zonolari (Ko'kpatas koni). Ma'danlar o'rtacha sulfidli, qatlamsimon va linzasimon shakldagi bo'rtgan ma'dan tanalari va po'k jinslar uchastkalaridan iborat.

Tomirli konlar uzoq masofali bir tomirdan yoki bir-biridan ajratilgan bir nechta tomirlar yoki tomirlar tizimidan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Barcha holatlarda har bir tomir mustaqil ma'dan tanasi hisoblanadi. Oltin-kvars formatsiyasi tomir konlari keng tarqalgan. Bularga Charmitan, Gujumsoy, O'rtaliq konlari kiradi. Konlar jumladan, intruziv va vulqon-terrigen jinslardagi tik cho'kuvchi subparallel kvars tomirlarini o'z ichiga oladigan tomir zonolari bilan ifodalanadi. Intruziv jinslardagi yo'nalish va yotish bo'ylab tomirlar o'xshash ko'rsatkichlar bilan xarakterlanadi, vulkanogen-terrigen jinslarda ular bo'rtiq va siqilishlar bilan ancha beqaror bo'ladi. Yotish bo'ylab yuqori gorizontlarda tomirlar ko'pincha tomir-ora-sira joylashgan ma'danlashuvli chiziqli shtokverklarga ayanadi (O'rtaliq, Charmitan konlari).

Rudalar tarkibiga ko'ra, tomir konlari ko'pincha kompleks: oltin-mis, oltin-surma, oltin-polimetall bo'ladi.

Konlar genezisi, shakllanish sharoitlariga ko'ra, bitta morfologik tur yoki har xil turlarning kombinatsiyasi bilan ifodalanishi mumkin. Vulkanik kalderalardagi konlar (Qo'chbuloq koni) ma'dan tanalarining morfologiyasi jihatidan ayniqsa murakkabdir. Konlarning ma'dan tanalari nishab formatsiyalararo va formatsiyalar ichidagi linza- va qavatsimon qatlamlar, kesuvchi tomirlar, hamda faqat shu konda uchraydigan eruptiv brekchialarning ustunsimon trubasimon tanalari bilan ifodalanadi.

5. Oltin - konlaridagi ma'danlarning texnologik xossalari o'zining xilma-xilligi bilan farq qiladi. Ularni qayta ishlash texnologiyasini belgilab beruvchi quyidagi belgilar eng katta ahamiyat kasb etadi:

- ma'dandagi oltin tavsifi (yirikligi, uchrash shakli, ma'danli va noma'dan minerallar bilan assotsiatsiyasi tavsifi, zarrachalar yuzasining holati);
- ma'danlarning kompleksliligi, ya'ni unda oltin bilan birga sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa foydali komponentlarning miqdori;
- ma'danlarning oksidlanganlik darajasi, ya'ni oksidlangan va sulfidli minerallarning foizdagi nisbati;
- ma'danda uni qayta ishlash texnologiyasini ancha murakkablashtiruvchi komponentlarning mavjudligi.

6. Oltin zarrachalar yirikligi bo'yicha yirik (0,07 millimetrdan katta), mayda (0,001 dan 0,07 millimetrgacha) va yupqa dispersli (0,001 millimetrdan maydaroq) kabilarga tasniflanadi.

Yirik oltin zarralari odatda jins maydalanganda oson bo'shaydi va gravitatsiya uslubi bilan ajratib olinadi, lekin yomon flotatsiyalanadi va sianidlashda sekin eriydi. Mayda oltin (erkin va sulfidlar birgalikda hosil bo'lgan o'simtalar) yaxshi flotatsiyalanadi, shuningdek sianidlanganda tez eriydi, lekin uning bir qismigina gravitatsiya uslubi bilan ajraladi. Yupqa dispersli oltin ma'dan maydalanganda yaxshi ochilmaydi va gravitatsiya hamda flotatsiya konsentratlariga o'tkazib tashuvchi minerallar (sulfidlar) bilan qo'shib olinadi. Sulfidli konsentratlardan bioksidlashdan yoki pirometallurgiya yordamida oksidlab kuydirishdan keyin oltin

sianidlab ajratiladi. Yupqa dispersli oltin kvarts tarkibidan faqat uni eritish paytida ajratib olinadi.

Dunyo amaliyotida oltinni olishni eng tarqalgan usuli oksidlab kuydirish va avtoklavda ishqorli eritmada ajratishdir.

Xozirgi vaqtda eng istiqbolli va ekologik toza usul yupqa dispersli oltinni biooksidatsiya usuli bilan olish hisoblanadi. Biooksidlash bir vaqtning o'zida sulfidlarni bakterial buzadi (oksidlaydi) va margimushni skorodit piritit (temir arsenati) xilidagi qiyin eriydigan shaklga aylantiradi. Biooksidlash natijasida ochilgan oltinni sianidli aralashma yordamida ajratib olish mumkin. Ularning texnologik xossalari o'zining xilma-xilligi bilan farq qiladi. Ularni qayta ishlash texnologiyasini belgilab beruvchi quyidagi belgilar eng katta ahamiyat kasb etadi:

7. Tarkibida oltin bo'lgan ma'danlarda ba'zi hollarda oltindan tashqari sanoat ahamiyatiga molik foydali komponentlar bo'ladi. Ular qatoriga quyidagilar kiradi: kumush, mis, surma, qo'rg'oshin, rux, volfram, uran, simob, vismut, talliy, selen, tellur, kremnezem, oltingugurt (sulfidli shaklda), barit, flyuorit va b. Shunga muvofiq ravishda oltin-piritli, oltin margimushli, oltin-kumushli, oltin-misli, oltin-surmali, oltin-uranli, oltin-baritli, oltin-polimetalli va oltin-kvartsli ma'danlar ajratiladi. Tarkibida 60 foizdan ortiq kremnezem, 13 foizdan oz giltuproq, 0,8% margimush va 0,3% surma bo'lgan oltin-kvartsli ma'danlar metallurgiya zavodlarida flyus moddasi sifatida ishlatilishi mumkin. Shunday sifatda oltin-sulfid-kvartsli formatsiya ma'danlari ham (Kauldi, Ko'chbuloq, Qizilolma, Qayrag'och va b.) ishlatilishi mumkin.

8. Sulfidlarning oksidlanish darajasiga ko'ra rudalar birlamchi (sulfidli), qisman oksidlangan (aralash) va oksidlanganlarga bo'linadi. 20% gacha oksidlangan minerallarni o'z ichiga olgan birlamchi rudalar hozirgi vaqtda eng katta sanoat ahamiyatiga ega. Qisman oksidlangan rudalar tarkibida 20 dan 70% gacha, oksidlangan rudalar tarkibini- 70% dan ortiq oksidlangan minerallar tashkil etadi.

9. Ma'danlardagi zararli aralashmalar baholashda birinchi navbatda sianidlash jarayoni-oltin ajratib olishdagi asosiy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan aralashmalar qatoriga kiradi.

- misning (oksidlar, karbonatlar, ikkilamchi sulfidlar, sulfatlar), surmaning (antimonit), temirning (pirrotin), margimushning (realgar, auropigment) ayrim minerallari ishtirokida oltinning erish tezligi keskin pasayadi va sianid sarflanishi ortadi;

- yutinish faolligini ortiqqligi bilan tavsiflanuvchi uglerodli moddalarning ayrim turlari;

- shlam hosil qiluvchi (slyudali - gilli) minerallar.

Ular sianidli pulpaning suvini qochirish jarayonini va erigan oltinni yuvib olishni qiyinlashtiradi. Bu minerallarning bo'lishi ma'danlarni tashishda va to'kishda, shuningdek ma'danni gravitatsion - flotatsiya usuli bilan boyitishda ancha qiyinchiliklar tug'diradi;

- margimush minerallari (arsenopirit, margimushli sulfatuzlar va b.). Ular tarkibida oltin bo'lgan konsentratlarni pirometallurgiyada qayta ishlashni qiyinlashtiradi va atrof muhitni muhofaza qilish uchun qimmat turadigan maxsus chora-tadbirlar ko'rilishini taqozo etadi.

10. Texnologik xususiyatlarning xilma -xilligi rudalarning moddiy tarkibidagi farqlar tufayli oltin xom ashyo, ularni qayta ishlashning texnologik sxemalari ko‘p hollarda boyitish jarayonlari, oltin qazib olish, shu jumladan rudalarni saralash, maydalash, siyqalash, loysizlantirish, gravitatsion va flotatsion (jamoalari yoki selektiv) boyitish, sianidlash (filtrlash yoki sorbsiya texnologiyasi bilan)ni o‘z ichiga oladi.

«O‘tga chidamli» rudalar va konsentratlardan oltin ajratib olish uchun oksidlovchi kuydirish, bakterial va avtoklavda ishqorlash asosiy usullar hisoblanadi. Eng samaralisi avtoklavda ishqorlash bo‘lib, bu oltinning 95% dan ko‘prog‘ini olish imkonini beradi. Erkin oltinga ega bo‘lgan kambag‘al rudalar uchun yig‘ib ishqorlash keng qo‘llaniladi.

Yakuniy jarayonlarga elektroliz yordamida ruxga oltinni cho‘ktirish (Dore qotishmasi) va uni tozalash kiradi.

11. Tarkibida oltin bo‘lgan konsentratlar sifati asosan ishlab turgan korxonaning texnik jarayonlari bilan belgilanadi. Mis eritiladigan va boshqa metallurgiya zavodlariga kelib tushadigan tarkibida oltin bo‘lgan gravitatsion konsentrat (TU Uz 65- 003-94), undagi oltin va aralashmalar miqdori bo‘yicha taxminan 1- jadvalda ko‘rsatilgan me‘yorlarga mos kelishi kerak.

1- jadval

Gravitatsion konsentratdagi oltin va aralashmalar miqdorlarining me‘yorlari

Konsentrat nomi	Miqdori			Namligi %dan ko‘p bo‘lmasligi kerak	Yirikligi mm dan katta bo‘lmasligi kerak	
	Oltin g/t dan kam bo‘lmasligi kerak	Aralashmalar % dan ko‘p bo‘lmaligi kerak				
		margimush	surma	giltuproq		
Tarkibida oltin bo‘lgan gravitatsion konsentrat	50	0,7	0,3	10	4	3

Eslatma: Mahsulot yetkazib beruvchi va iste‘molchining kelishuviga ko‘ra ayrim mahsulotlar partiyasini tarkibida oltin miqdori kam bo‘lgan va margimush, surma, giltuproq miqdorlari ko‘proq bo‘lgan holda yetkazib berishga yo‘l qo‘yiladi.

Xuddi shuningdek, tarkibida oltin bo‘lgan flotatsion konsentrat (TU 65-004-94-006) oltin va aralashmalarining miqdori bo‘yicha 2-jadvalda ko‘rsatilgan me‘yorlarga mos kelishi lozim.

2- jadval

Flotatsion konsentratdagi oltin va aralashmalar miqdorlarining me‘yorlari

Konsentrat nomi	Oltin g/t dan kam bo‘lmasligi kerak	Miqdori			Namligi %dan ko‘p bo‘lmasligi kerak
		Aralashmalar % dan ko‘p bo‘lmaligi kerak			
		margimush	surma	margimush	
Tarkibida oltin bo‘lgan flotatsion konsentrat	<u>20</u>	<u>2</u>	<u>0.3</u>	<u>10</u>	<u>6</u>
Tarkibida oltin bo‘lgan kuydirilgan (kuyundi) konsentrat	<u>30</u>	<u>1</u>	<u>0.3</u>	<u>10</u>	

Eslatma: Mahsulot yetkazib beruvchi va istemolchining kelishuviga kura ayrim partiya mahsulotlarini tarkibida oltin miqdori kam bo'lgan margimush, surma, giltuproq miqdorlari ko'proq bo'lgan konsentratlarni, shuningdek ularning namligi ko'proq bo'lgan holda yetkazib berishga yo'l qo'yiladi.

Mis erituvchi zavodlarda flyus sifatida qo'llanadigan, tarkibida oltin bo'lgan kvarsli ma'dan ishlab chiqarishdagi yo'nalishi bo'yicha sinflarga bo'linadi (3-jadval).

3- jadval

Flyus ma'danlarini tasniflash

Ma'dan sinfi	Qo'llanish sohasi
Akslantiruvchi	Tarkibida mis bo'lgan xom ashyoni akslantirib eritish
Konvertorli	Ikkilamchi xom ashyodan mis shteynlarini va kora misni ajratib olish
Shaxtali	Tarkibida mis bo'lgan va mis- oltin-gugurtli xom ashyoni shaxtada eritib olish

Tarkibida oltin bo'lgan kvarsli flyus ma'dan navlarining kimyoviy tarkibi hamda yirikligi taxminan 4-jadvalda ko'rsatilgan talablarga mos kelishi lozim.

4-jadval

Flyusli ma'danlarning kimyoviy tarkibi hamda yirikligiga bo'lgan taxminiy talablar

Sinflar va navlar	Miqdori, %				Yirikligi, mm
	Umumiy kremnezyomdan g/t dan kam emas	giltuproq	margimush	surma	
		Ko'p emas			
Akslantiruvchi					
I nav	70	8	0,8	0,3	0-10
II nav	65	10	0,8	0,3	
III nav	60	13	0,8	0,3	
Konvertorli					
I nav	70	8	0,8	0,3	10-50
II nav	65	10	0,8	0,3	
III nav	62	12	0,8	0,3	
Shaxtali					
I nav	90	6	0,8	0,3	50-120
II nav	75	8	0,8	0,3	
III nav	68	9	0,8	0,3	

Eslatma: Mahsulot yetkazib beruvchi va iste'molchining o'zaro kelishuvi bo'yicha qayd etilgan komponentlar miqdorini u yoki bu tomonga o'zgartirishga yo'l qo'yiladi.

II. Konlarni geologik tuzilishini murakkabligi bo'yicha guruhlariga ajratish

12. Ruda jismlarining o'lchami va shakli, qalinligining o'zgaruvchanligi, ichki tuzilishi va oltinning tarqalish xususiyatlari bo'yicha oltin ruda konlari «Qattiq

foydali qazilmalarning zaxiralari va bashorat resurslari tasnifi» ning 2-, 3- va 4- murakkablik guruhlariga to'g'ri keladi. (GKZ, 2022).

2-guruhga murakkab geologik tuzilishga ega konlar (maydonlar) kiradi, ular maydoni 1 km va undan ortiq (Muruntov koni), ruda konlari uzunligi 1 km dan ortiq, qalinligi 5-10 m va undan ortiq bo'lgan minerallashtirilgan zonalaridir. (Ko'kpatas konining alohida uchastkalari). Ruda uchastkalari qalinligi va oltinning 40-100% gacha bo'lgan o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti bilan minerallashtiruvning taqsimlanishi notekis bo'lgan zonalaridir.

3-guruhga uzunligi yuzlab metr dan 1 km dan ortiq, qalinligi 5-10 m dan 25-50 m gacha bo'lgan, turli morfologiyadagi ma'dan tanalari bo'lgan minerallashtirilgan zonalar bilan ifodalangan juda murakkab geologik tuzilishga ega konlar (maydonlar) (Amanataytau, Daugiztau, Adjibugut konlari), uzunligi 0,2-0,7 km, qalinligi bir necha metr dan 100 m gacha va undan ko'proq qalinlikdagi ma'dan tanalari bo'lgan shtokverksimon minerallashtirilgan zonalar (Myutenbay , Chuqurquduq konlari), o'rtacha qalinligi 1-3 m, umumiy uzunligi yuzlab metrgacha bo'lgan o'zaklashgan tomirli minerallashtirilgan zonalar (Sarmich, Biran konlari), o'zgaruvchan qalinlikdagi tomirlar (bir metr dan kam va 1,5 m gacha), uzunligi 1-1,5 km gacha (Gujumsoy, Charmitan, O'rtaliq konlari), uzunligi 0,2-0,5 km gacha, qalinligi bir metr dan 5-10 m gacha bo'lgan murakkab tuzilishdagi minerallashtirilgan tomir zonlari (Qo'chbuloq, Qayrog'och konlari), 0,1-1,0 km gacha uzunlikdagi, qalinligi 1-50 m gacha bo'lgan formatsiyalararo va formatsiyalar ichidagi yotqiziqqlar (Kauldi koni) kiradi.

Konlar oltin ma'danlashuvining notekis taqsimlanishi bilan tavsiflanadi (ruda uchastkalari qalinligi va oltin miqdorining o'zgarish koeffitsiyentlari 100-150% oralig'ida).

4-guruhga juda murakkab geologik tuzilishga ega, kichik o'lchamdagi tik cho'kma konlari (Marjonbuloq koni), tomirlar va linzalar, yoriqlar bilan intensiv ravishda buzilgan konlar (Gujumsoy va Pirmirab konlarining ayrim uchastkalari) kiradi.

Ma'danlashuv juda notekis bo'lib, ma'dan kesimi qalinligining o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti va oltin miqdori 150%dan ortiq.

4-guruhga, shuningdek, ma'danlashuv chegarasi murakkablik ko'rsatkichi 0,4 dan kam bo'lgan kon (uchastkalar) (Kauldi konining Yujniy I, Nijnekenjasoy uchastkalari) kiradi

13. Konning (uchastkaning) muayyan guruhga mansubligi konning umumiy zaxiralarining kamida 70 foizini o'z ichiga olgan asosiy ma'dan tanalarining geologik tuzilishining murakkablik darajasi bilan belgilanadi.

Konni (uchastkani) ma'lum bir guruhga belgilashda, ma'danlashuvning asosiy xususiyatlarining o'zgaruvchanligining miqdoriy xarakteristikasidan foydalanish mumkin (Ilova).

III. Konlarni o'rganilganlik darajasiga bo'lgan talablar

14. Konlarni eng samarali o'rganish uchun geologiya-qidiruv ishlarining belgilangan bosqichlariga rioya qilish, ularning to'liqligi va sifatiga qo'yiladigan talablarni bajarish, qidiruv usullari va texnik vositalarni oqilona uyg'unlashuvini

ta'minlash, shuningdek, tadqiqot natijalarini bosqichma-bosqich geologik va iqtisodiy baholash zarur.

15. Barcha aniqlangan oltin konlarida ularning tijorat ahamiyatini asoslash uchun zarur bo'lgan hajmlarda baholash amalga oshiriladi. Qidiruv ishlari faqat sanoat ahamiyati texnik-iqtisodiy hisob-kitoblar bilan oqlangan konlarda amalga oshiriladi.

16. Konni baholash, razvedka qilish natijalariga ko'ra oltin rudalari va metall, ular bilan bog'liq foydali qazilmalar va ular bilan bog'liq bo'lgan sanoat ahamiyatiga ega foydali komponentlarning geologik va ekspluatatsion zaxiralari belgilangan tartibda hisoblab chiqiladi va «Qattiq foydali qazilmalarning bashorat resurslari va zaxiralarning klassifikatsiyasi» (DZK 2022 y.) ning I va V boblariga muvofiq tasdiqlanadi.

Zaxirani hisoblash konturidan tashqarida P_1 toifadagi bashorat resurslari baholanadi.

17. Kon uchun masshtabi obyektning o'lchamiga, geologik tuzilishining xususiyatlariga va relyefiga mos keladigan topografik asos tuzilishi kerak. Oltin konlarining topografik xaritalari va rejaları odatda 1:1000 - 1:5000 masshtabida tuziladi. Barcha qidiruv va qazib olish ishlari (kanavalar, shurflar, shtolnyalar, quduqlar), batafsil geofizik kuzatishlar profillari, shuningdek, ma'dan tanalari va minerallashgan zonalarning tabiiy chiqishlari instrumental bog'langan bo'lishi kerak. Yer osti kon inshootlari va quduqlar marksheyder syomkasi ma'lumotlariga ko'ra rejalariga tushiriladi. Kon ishlari gorizontlarining marksheyderlik rejaları odatda 1:200 masshtabida, jamlanma rejalar - 1:1000 dan kam bo'lmagan masshtabida tuziladi. Quduqlar uchun, ularning ma'dan tanasining ustki qatlami va tubi qatlami bilan kesishish nuqtalarining koordinatlarini hisoblash va reja va kesimlar yuzasida ularning stvollarining ilovasi qurilishi kerak.

Hududda olib borilgan geofizik tadqiqotlar natijalarini geologik xaritalar va xaritalar kesimlarini tuzishda va taqdim yetilayotgan xaritalar masshtabida geofizik anomaliyalarni izohlashning umumiy rejalarida aks ettirilishi kerak.

18. Konning geologik tuzilishi har tomonlama o'rganilishi va geologik xaritada 1:1000 - 1:5000 masshtabda (konning kattaligi va murakkabligiga qarab), geologik kesmalar, rejalar, 1:500 - 1:1000 masshtabli proyeksiyalar, hajmli modellar, zarur hollarda esa – ma'dan tanasining tub (ustki) qatlamining strukturaviy rejalarida, izomiqdorlar rejasi, izometrogrammalarda aks ettirilishi lozim. Konning geologik va geofizik materiallari ma'dan tanasining kattaligi va shakli, ularning paydo bo'lish sharoiti, ichki tuzilishi va uzluksizligi, ma'dan tanasining nurashganlik darajasi, ulardagi oltinning tarqalishi, qamrov jinslarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari va ma'dan jinslarining qamrov jinslar, burmali tuzilmalar va tektonik buzilishlar bilan geologik zaxiralarni hisoblashni asoslash uchun zarur va yetarli darajada bog'liqligi haqida tushuncha bera olishi kerak. Shuningdek, konning geologik chegaralarini va R_1 toifadagi bashorat qilingan resurslari baholanadigan istiqbolli hududlarning joylashishini aniqlaydigan qidiruv mezonlarini asoslash kerak.

19. Ma'danli jismlar va minerallashgan zonalarning yer yuzasiga yaqin va yer yuzasiga chiqib turgan qismlarini tog' inshootlari (kanavalar, shurflar) va mayda

burg'i quduqlari yordamida geofizik hamda geokimyoviy uslublarni qo'llab o'rganilgan, mufassal darajada namunalangan bo'lishi kerak. Olingan natijalar ma'danli jismlar morfologiyasi va yotish sharoitlarini, oksidlanish zonasining tarqalish chuqurligini hamda tuzilishini, ikkilamchi sulfidlar bilan boyishini va ularni oltin bilan boyishining mumkinlik darajasini, moddiy tarkibini o'zgarish xususiyatlarini, texnologik xossalarini aniqlashga hamda birlamchi, aralashgan va oksidlangan ma'dan zaxiralarini sanoat (texnologik) turlari bo'yicha alohida-alohida hisoblab chiqish imkonini berishi kerak.

20. Konni chuqurlikka baholash odatda quduqlar bilan, razvedka - juda murakkab geologik tuzilishga ega kon bo'lgan taqdirda, kon inshootlari bilan birgalikda quduqlar orqali amalga oshiriladi.

Qidiruv metodikasi - qazib olish va burg'ilash hajmlarining nisbati, kon inshootlarining turlari va burg'ilash usullari, qidiruv tarmog'ining geometriyasi va zichligi, namuna olish turlari va usullari - o'rganilayotgan kondagi zaxiralarni uning geologik tuzilish guruhi bo'yicha murakkablik darajasiga mos keladigan toifalarda hisoblash imkoniyatini ta'minlashi kerak. U ma'dan tanalarining geologik xususiyatlaridan kelib chiqib, konlarni qazib olish, burg'ilash va geofizik-qidiruv asboblari imkoniyatlarini hamda shunga o'xshash turdagi konlarni qidirish va o'zlashtirish tajribasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Optimal razvedka variantini tanlashda oltin miqdorining o'zgaruvchanlik darajasini va uning fazoviy tarqalishining tabiatini, rudalarning teksturaviy va strukturaviy xususiyatlarini (asosan ma'dan minerallarning katta ajralmalarining mavjudligi), shuningdek, burg'ilash jarayonida kernning yemirilishi, oltinning va noma'dan minerallarning namuna olish jarayonida burdalanishi mumkinligini hisobga olish kerak. Shuningdek, turli xil qidiruv variantlari bo'yicha qiyosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlarning vaqtini hisobga olish kerak.

Konni baholash qidiruv burg'ilash ma'lumotlarini, geofizik tadqiqotlarni hisobga olgan holda chuqurlikkacha amalga oshiriladi. Qidiruv chuqurligi konlarni o'zlashtirishning zamonaviy texnologiyalaridan foydalangan holda o'zlashtirish uchun iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan ufqlar bilan cheklanadi.

21. Zaxiralarni hisoblashning ishonchligini ta'minlash uchun ustunli burg'ilash (kolonkali) quduqlari burg'ilashning asosiy usuli hisoblanadi. Sharohkali (konusli) burg'ilash oltin mineralizatsiya zonalarini, oltin konsentratsiyasi yuqori bo'lgan hududlarni aniqlash uchun baholash ishlarida qo'llaniladi.

Burg'u quduqlaridan ma'dan tanalari va asosiy jinslarning yotish xususiyatlarini, ularning hajmi, ma'dan tanalarining ichki tuzilishini, ma'dan atrofidagi jinslarning o'zgarganlik darajasi, tabiiy ma'dan turlarini tarqalishi, ularning tekstura va strukturasi kerakli darajadagi to'laqonlik bilan aniqlashga, hamda namunalash uchun materialning vakilliligini ta'minlab bera oladigan, hajm jihatdan maksimal darajada saqlangan kern olinishi kerak. Qidiruv ishlarining amaliyoti shuni ko'rsatdiki, har bir burg'ilash uchun kernning chiqishi 90%dan kam bo'lmasligi kerak.

Kernning chiziqli chiqishini aniqlashning ishonchligi og'irlik yoki hajm bo'yicha tizimli ravishda nazorat qilinishi kerak.

Oltin miqdorining va ruda oraliqlarining qalinligini aniqlash uchun kernning vakilliligi uning tanlab parchalanish imkoniyatlarini o'rganish bilan tasdiqlanishi kerak. Buning uchun rudalarning asosiy turlari bo'yicha (ularning har xil hosildorligi intervallari bo'yicha) kern va shlamdan namuna olish natijalarini nazorat kon ishlari, zarbali, pnevmozarbli va sharoshkali burg'ulash quduqlarining namuna olish ma'lumotlari bilan solishtirish zarur. Namuna olish natijalarini sezilarli darajada buzadigan kernning past hosildorligi yoki tanlab parchalash bilan boshqa texnik razvedka vositalaridan foydalanish kerak.

Burg'ilashning ishonchliligi va axborot mazmunini oshirish uchun yo'naltirilgan kern tanlashni qo'llash, uning holatini baholash bilan kernning batafsil hujjatlarini ishlab chiqish, qo'yilgan vazifalardan, konning o'ziga xos geologik-geofizik sharoitlaridan va geofizik usullarning zamonaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, oqilona kompleksi aniqlangan quduqlarda geofizik tadqiqotlar ma'lumotlaridan foydalanish kerak. Rudalar oralig'ini aniqlash va ularning parametrlarini o'rnatish uchun samarali bo'lgan karotaj kompleksi konda baholash va qidirish bosqichida burg'ilangan barcha quduqlarda amalga oshirilishi kerak.

Chuqurligi 100 m dan ortiq bo'lgan vertikal quduqlarda va barcha qiya quduqlarda, shu jumladan yer osti quduqlarida kamida har 20 m da quduq tanalarining azimut va zenit burchaklari aniqlanishi va nazorat o'lchovlari bilan tasdiqlanishi kerak. Ushbu o'lchovlarning natijalari geologik kesimlarni, gorizontalarini qurishda va ruda oraliqlarining qalinligini hisoblashda hisobga olinishi kerak. Kon ishlarida quduq tanalari kon inshootlari bilan kesib o'tilgan bo'lsa, o'lchov natijalari marksheyder ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi. Quduqlar uchun ular ma'dan tanalarini kamida 30° burchak ostida kesishishini ta'minlash kerak.

Quduqlarning chuqurligini nazorat qilish o'lchovlari kamida 50 m o'tilgandan keyin amalga oshiriladi.

Katta burchak ostida tik cho'kuvchi ruda tanalarini kesib o'tish uchun quduqlarni sun'iy qiyshaytirishdan foydalanish tavsiya yetiladi. Burg'ilash yo'li bilan qidiruv ishlarining samaradorligini oshirish uchun ko'p tomonlama quduqlar va yer osti quduqlarining yelpig'ichlaridan foydalanish kerak. Ma'dan bo'ylab bir diametrdagi burg'ilash maqsadga muvofiqdir.

22. Kon-tog' inshootlari ma'dan tanalarining paydo bo'lish sharoiti, morfologiyasi va ichki tuzilishi, ularning uzluksizligi, ma'danlarning moddiy tarkibi, ulardagi oltinning konning tipik hududlarida tarqalish xarakterini batafsil o'rganishning, shuningdek, burg'ulash ma'lumotlarini nazorat qilish, geofizik tadqiqotlar va katta tonnali texnologik namunalarni tanlash uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Ma'dan tanalarining yaxlitligi, ularning qalinligi va oltin miqdori yotish va cho'kish bo'yicha o'zgaruvchanligi tabiati vakillik zonalarida yetarli: uzluksiz shtrek va ko'tarmali tomir tipidagi ensiz rudalar uchun va minerallashgan zonalar va shtokverklar tipidagi enli ma'dan tanalari uchun esa, yer osti gorizontalaridagi quduqlari tarmog'ini qalinlashtirish orqali o'rganilishi kerak.

Kon ishlari asosan detallashtirish maydonlarida, shuningdek, konning ustuvor qazib olish rejalashtirilgan maydonlarida (gorizontlarida) amalga oshiriladi. Ular

dalaning ekspluatatsiyasi vaqtida maksimal foydalanish hisobi bilan o'tkazilishi kerak.

23. Qidiruv ishlarining joylashuvi va ular orasidagi masofalar har bir strukturaviy-morfologik turdagi ma'dan tanalari uchun ularning o'lchamlari, qalinligi, ichki tuzilishi, oltinning o'lchamlari va tarqalishini hisobga olgan holda belgilanishi kerak; bu holda, boyitilgan maydonlarning ustunli joylashishi mumkinligini hisobga olish kerak. Razvedka tarmog'ining qabul qilingan zichligi statistik, geostatistik va boshqa usullar bilan tarmoqni zaiflash usuli bilan detal maydonlarida tasdiqlanishi kerak .

5-jadvalda O'zbekistonda geologik murakkablikdagi turli guruhdagi oltin konlarini qidirishda foydalaniladigan geologiya-qidiruv tarmog'ining zichligi bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, ular geologik-qidiruv ishlarini loyihalashda hisobga olinishi mumkin, lekin ularni majburiy deb hisoblash mumkin yemas. Har bir kon uchun razvedka ishlari tarmog'ining ratsional geometriyasi va zichligi batafsil maydonlarni o'rganish, shuningdek, u yoki shunga o'xshash kon uchun barcha mavjud geologik va geofizik materiallarni chuqur tahlil qilish asosida asoslanadi.

24. Zaxiralarning ishonchliligini tasdiqlash uchun konning ba'zi uchastkalarini batafsilroq o'rganish kerak. Bu hududlar konning qolgan qismiga nisbatan zichroq qidiruv tarmog'i orqali o'rganilishi va namunalar olinishi kerak. O'rganilayotgan konlarda bunday hududlardagi zaxiralar yoki 2-guruh konlarining gorizontlari B toifasi bo'yicha o'rganilishi kerak. 3- va 4-guruhlarining o'rganilgan konlarning detallashtirilgan uchastkalarida C₁ toifasi uchun qabul qilinganiga nisbatan kamida 2 marta qidiruv ishlari tarmog'ini zichlashtirish yoki susaytirish maqsadga muvofiq.

Detallashgan maydonlar konning asosiy zaxiralarini o'z ichiga olgan ma'dan tanalarining paydo bo'lish sharoiti va shaklining xususiyatlarini, shuningdek ma'danlarning ustun sifatini aks ettirishi kerak. Iloji boricha, ular birinchi navbatda ishlab chiqilishi kerak bo'lgan zaxiralar konturida joylashishadi. Bunday maydonlar geologik tuzilish xususiyatlari, rudalarning sifati va kon-geologik sharoiti bo'yicha butun kon uchun xos bo'lmagan hollarda, ushbu talabga javob beradigan hududlar ham har tomonlama o'rganilishi kerak. Detallashgan maydonlarning soni va hajmi har bir holatda uning geologik tuzilishining murakkabligiga qarab belgilanadi.

Zaxiralari ma'lum ruda jismlarini geometriklashtirmasdan, umumiy konturda, balans rudalari maydonlarining fazoviy holatini, tipik shakllari va o'lchamlarini aniqlash asosida rudali omillardan foydalangan holda hisoblangan uzluksiz minerallashuvli konlar uchun. Shuningdek, zaxiralarni ruda oraliqlarining qalinligi bo'yicha taqsimlash, ularni tanlab qazish imkoniyatini baholash kerak.

Detallashgan uchastkalardan olingan ma'lumotlar konning murakkabligini asoslash, razvedka tarmog'ining qabul qilingan geometriyasi va zichligi va tanlangan qidiruv uskunasining geologik tuzilishi xususiyatlariga muvofiqligini tasdiqlash, namunalashning natijalarini ishonchliligini baholash va konning qolgan qismidagi zaxiralarni hisoblashda qabul qilingan taxminiy parametrlar uchun ishlatiladi. O'zlashtirilayotgan konlarda ushbu maqsadlar uchun ekspluatatsion qidiruv va o'zlashtirish natijalaridan foydalaniladi.

25. Barcha qidiruv ishlari va ma'dan tanalari yoki zonalarining yer yuzasiga chiqishi standart bo'yicha hujjatlashtirilishi kerak. Namuna olish natijalari birlamchi hujjatlarda qayd yetiladi va geologik tavsif bilan taqqoslanadi.

Birlamchi hujjatlarning to'liqligi va sifati, uning konning geologik xususiyatlariga muvofiqligi, strukturaviy elementlarning fazoviy holatini aniqlashning to'g'riligi, chizmalar va ularning tavsiflari tabiat bilan solishtirish orqali belgilangan tartibda vakolatli komissiyalar tomonidan tizimli ravishda nazorat qilinishi kerak. Shuningdek, namuna olish sifatini baholash (namunalar kesimi va massasining muvofiqligi, uchastkaning geologik tuzilishining xususiyatlariga mos keladigan joylashuvi, namuna olishning to'liqligi va uzluksizligi, nazorat namunalarining mavjudligi va natijalari), mineralogik-texnologik va muhandislik-gidrogeologik tadqiqotlarning vakilliligini, hajm massasini, namunani qayta ishlash va tahliliy ishlar sifatini aniqlash kerak. Bundan tashqari, umumlashtirilgan geologik materiallarning birlamchi hujjatlarga muvofiqligini nazorat qilish kerak. Tekshiruv natijalari aktlar bilan rasmiylashtiriladi.

5 jadval

O'zbekistonning oltin ma'danli tipik konlarini qidirib chamalashda qo'llangan qidiruv inshootlari to'rining zichligi to'g'risidagi

MA'LUMOTLAR

Konlarning murakkablik guruhi	Ma'dan tanalarining morfologik xususiyati	Tog'-kon inshootlarining turi	B		C ₁		C ₂		Konlar misolida
			Cho'zilishi bo'yicha	Yotiqligi bo'yicha	Cho'zilishi bo'yicha	Yotiqligi bo'yicha	Cho'zilishi bo'yicha	Yotiqligi bo'yicha	
2	Shtokverklar	Burg'u quduqlari shtreklar* rassechkalar gorizental burg'u quduqlari ko'tarmalar	uzluksiz 20-40	 80-120	40 uzluksiz 40-80	40-60	160	40-80	Muruntov
2	Yirik davomiy yotqiziq'larga ega ma'danlashgan zonalar	Burg'u quduqlari shtreklar* rassechkalar gorizental burg'u quduqlari ko'tarmalar	40 uzluksiz 20-40	30-40	60-80 uzluksiz	40-60			Ko'kpatas (31,32 ma'dan tanalari)
3	Morfologiyasi jihatdan tartibsiz ma'dan tanalari (yotqiziq'lar) bo'lgan shtokverksimon chiziq'li-cho'zilgan zonalar	Burg'u quduqlari shtreklar* rassechkalar gorizental burg'u quduqlari ko'tarmalar			40 uzluksiz 20-40	40-60	80	80-100	Myutenbay, Chukurkuduk

3	O'rta va yirik murakkab tuzilishdagi ma'dan va tomirlar zonalari, murakkab tuzilishga ega tomirlar	Burg'u quduqlari shtreklar* Rassechkalar* gorizontal burg'u quduqlari ko'tarmalar			20-40 uzluksiz 20-40 20-40 80-120	40-60	80	80-120	Ko'chbuloq, Qizilolma, Charmitan, Gujumsoy, Pirmirab, Guzaksoy, Amantaytov
3	Murakkab tuzilishdagi sterjenli tomirlariga ega tik yotuvchi ma'dan zonalari	Burg'u quduqlari shtreklar rassechkalar gorizontal burg'u quduqlari ko'tarmalar			40 uzluksiz 20 80-120	40	80	80	Ko'chbuloq, Qizilolma, Charmitan, Gujumsoy, Pirmirab, Guzaksoy, Amantaytov
4	Asosiy parametrlarning yuqori o'zgaruvchanligi bilan kichik o'lchamli tik cho'kma ma'dan tanalari	Burg'u quduqlari shtreklar rassechkalar gorizontal burg'u quduqlari ko'tarmalar			40 uzluksiz 10-20 Yagona holda	30-40	80-120	80-120	Marjonbuloq
*Myutenbay konining yuqori gorizontlarida tik cho'kkan ma'dan tanalarini qidirish uchun yer osti kon ishlari olib borildi.									

26. Foydali qazilmalarning sifatini o'rganish, ma'dan tanasining chegaralarini aniqlash va zaxiralarni hisoblash uchun geologiya-qidiruv ishlari natijasida aniqlangan yoki tabiiy qatlamlarda o'rnatilgan barcha ma'dan intervallari namunalari olinishi kerak.

27. Namuna olish usullarini tanlash konning o'ziga xos geologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Kon uchun qabul qilingan namuna olish usuli natijalarning eng yuqori ishonchliligini yetarli mahsuldorlik va tejamkorlik bilan ta'minlashi kerak. Namuna olishning bir necha usullaridan foydalanilganda, ularni natijalarning aniqligi va ishonchliligi nuqtai nazaridan solishtirish kerak.

28. Qidiruv uchastkalarini sinovdan o'tkazish quyidagi majburiy shartlarga rioya qilgan holda amalga oshirilishi kerak:

Namuna olish tarmog'i izchil bo'lishi kerak, uning zichligi konning o'rganilayotgan maydonlarining geologik xususiyatlari bilan belgilanadi; namunalar maksimal ma'danlashuv o'zgaruvchanligi yo'nalishi bo'yicha ma'dan tanalarini (ma'dan zonalarini) kesib o'tgan holda olinishi kerak. Agar ma'dan jismlari qidiruv quduqlari bilan maksimal o'zgaruvchanlik yo'nalishiga keskin burchak ostida kesib o'tgan bo'lsa (namunalarning ishonchliligiga shubha tug'lsa), ushbu quduq namunalarning natijalarini zaxiralarni hisoblashda qo'llash mumkinligini nazorat ishlari yoki taqqoslash yordamida isbotlanishi kerak.

Sanoat konturi konditsiyalariga muvofiq, bo'sh yoki sifatsiz qatlam qalinligidan oshib ketadigan qiymatga ega bo'lgan asosiy jinslarga kirish imkoniyati bilan ma'dan tanasining to'liq qalinligida uzluksiz namuna olish lozim; ko'rinadigan geologik chegaralari bo'lmagan ma'dan tanalari uchun — barcha qidiruv kesimlarida va aniq geologik chegaralari bo'lgan ma'dan tanalari uchun — siyrak ish tarmog'i bo'ylab; kanavalarda, shurflarda, xandaqlarda (transheya) rudalarning ildiz qismlaridan tashqari, ularning nurash mahsulotlaridan ham namuna olish kerak; Kon inshootlaridan (kanava, shtrek, rassechka va b.) namuna olish, qimmatli oltin konlarida tajriba ishlari bilan bir necha bor isbotlangan, 5x10 sm li seksion jo'yak orqali amalga oshirilishi kerak.

Ma'dan tanalarining qirg'oqlaridagi ma'dan va minerallashgan tog' jinslarining tabiiy turlarida alohida – seksiyalar bilan namunalar olishi kerak; Har bir seksiyaning uzunligi (odatiy namuna) ma'dan tanasining ichki tuzilishi, moddiy tarkibining o'zgaruvchanligi, tekstura va struktura xususiyatlari, ma'danlarning fizik, mexanik va boshqa xususiyatlari, quduqlarda — shuningdek, qatnov (reys) uzunligi bilan belgilanadi; shu bilan birga, kernning turli xil chiqimi bilan tavsiflangan intervallardan alohida namuna olinadi; kernning tanlab ishqalanishi mavjud bo'lganda, namunalashga, ham kern, ham kern singari alohida namuna sifatida olinadigan, qayta ishlanadigan va alohida tahlil qilinadigan, bitta intervaldan olingan kernning maydalangan mahsulotlari olinadi. Agar kernning konditsion chiqimini olishning iloji bo'lmasa, u holda loy (shlam)dan namuna olishga ruxsat beriladi.

Ma'dan tanasini to'liq kesib o'tadigan kon inshootlarida namuna olish inshootning ikkita devori bo'ylab amalga oshirilishi kerak; ma'dan tanasining yotishi bo'ylab o'tgan inshootlarda – zaboylarda. Izlash inshootlarida namunalar

orasidagi masofa 1-4 m dan oshmasligi kerak (namuna olish qadami eksperimental ma'lumotlar bilan tasdiqlanishi kerak). Tik ma'dan tanalari bilan gorizontol kon ishlarida barcha namunalar doimiy, oldindan belgilangan balandlikda joylashtiriladi. Qabul qilingan namunaviy parametrlar eksperimental ish bilan asoslanishi kerak.

Qoida tariqasida, ma'dan tanalarini to'liq qalinligini ochmaydigan shtrek, ko'tarilish, gezenk, quduqlardan namuna olish ma'lumotlaridan zaxiralarni hisoblashda foydalanilmaydi. Agar ushbu kesimda ma'dan tanasining to'liq qalinligining ochilmasligiga sabab, ma'dan tanasi konturining, qalinlikning oshishi ("puflash") tufayli inshoot (quduq) chegarasidan tashqariga chiqishi bo'lsa, ma'dan tanasining sinovdan o'tgan qalinligi zaxiralarni hisoblashda hisobga olinishi mumkin. Ma'dan tanalarining to'liq qalinligini ochgan ko'tarilish namunalarini ma'lumotlaridan foydalanish imkoniyati, har bir holatda oltin bilan boyitilgan maydonlarni (ma'dan ustunlari) taqsimlash xususiyatidan kelib chiqib asoslanishi kerak.

29. Har bir qabul qilingan usul va ma'danlarning asosiy turlari bo'yicha, namuna olish sifati natijalarning to'g'riligi va ishonchliligini baholagan holda tizimli ravishda nazorat qilinishi kerak. Namunalarning geologik tuzilish elementlariga nisbatan holatini va ma'dan tanalarining qalinligi bo'yicha konturlanishining ishonchliligini, namunalarining qabul qilingan parametrlarining izchilligini va haqiqiy massaning jo'yakning qabul qilingan kesimi yoki haqiqiy diametri va kernning chiqishi asosida hisoblangan namunaga (ruda zichligi o'zgaruvchanligini hisobga olgan holda, og'ishlar $\pm 10-20\%$ S dan oshmasligi kerak) mosligini o'z vaqtida tekshirish kerak.

Jo'yakdan namuna olishning aniqliligini xuddi shunday kesimli biriktirilgan jo'yaklardan namuna olish bilan, kerndan namuna olishda - kernning ikkinchi yarmidan namuna olish yo'li bilan nazorat qilinishi kerak.

Asosiy va nazorat namuna olish tayanch intervallar bo'ylab tahliliy ishlarning 100% ichki va tashqi nazorati bilan o'tkazish maqsadga muvofiqdir, uning natijalari ushbu yo'riqnoma talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Namuna olishning aniqligiga ta'sir qiluvchi kamchiliklar aniqlansa, ma'dan intervalidan qayta namuna olish kerak.

Namuna olishning qabul qilingan metod va usullarining ishonchliligi mavjud uslubiy tavsiyalarga muvofiq vakillik usuli, odatda yalpi nazorat qilinadi. Shu maqsadda, shuningdek, texnologik namunalar ma'lumotlaridan, ustunlardagi zichlik va qazib olish natijalarini aniqlash uchun olingan quyma namunalardan foydalanish kerak.

Nazorat namunalar hajmi natijalarni statistik qayta ishlash va tizimli xatolarning yo'qligi yoki mavjudligi to'g'risida asosli xulosalar chiqarish, kerak bo'lganda tuzatish omillarini kiritish uchun yetarli bo'lishi kerak.

